



## BANKLARNING RIVOJLANISH TARIXI VA ULARNING DAROMADLARINI OSHIRISHDA IQTISODIY TAHLILNING O'RNI.

**Mahmudov Sirojiddin**

Ilmiy rahbar:

**Rahimboyev Sodikjon Bekpo'lat o'g'li**

SamDU Kattaqo'rg'on filiali, "Aniq va tabiiy fanlar" fakulteti talabasi.

**Xoshimov Sevinchbek Xusniddin o'g'li**

SamDU Kattaqo'rg'on filiali, "Aniq va tabiiy fanlar" fakulteti talabasi.

sevinchbekxoshimov102@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10212650>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma'qullandi: 24- November 2023 yil

Nashr qilindi: 28-November 2023 yil

### KEY WORDS

*bank, kredit, depozit, bankrotto, bancherii, modernizatsiya, holding, bank bo'lmagan banklar, konvertatsiya.*

### ABSTRACT

*Bu maqola banklar va ularning operatsiyalarining paydo bo'lish sabablari va hozirgi kunda banklar faoliyatini samarali tashkil etish uchun amalga oshiralayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot beradi.*

Barchamizga ma'lumki, har bir davlatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va nufuzi bevosita uning iqtisodiy va siyosiy kuchiga bog'liqdir. Mamlakat taraqqiyoti, uning rivojlanishi, butun dunyoda o'z so'zi va o'z qarashlariga ega bo'lishi ham aynan shu davlatning ham iqtisodiy ham ma'naviy kuchiga chambarchas bog'liqdir. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'inini esa uning bank va moliya tizimi tashkil etadi. Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Binobarin, banklarning iqtisodiyotda tutgan roli ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan, muhim operatsiyalarni bajaradi. Shu boisdan ham, banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, ular iqtisodiyotda alohida va yetakchi ahamiyat kasb etadi. Dastlabki banklar qachon va qanday paydo bo'lganligini aniqlash ancha qiyinchilik tug'diradi. Gap shundaki, hozirgi davrda banklar faoliyati xususiyatidan kelib chiqib turlicha bo'lgan operatsiyalarni bajaruvchi universal moliyaviy tashkilotlarni o'zida namoyon qiladi. Masalan, birinchi darajali toifaga kiruvchi chet el banklari o'z mijozlariga 300 dan ortiq turli xil xizmatlarni ko'rsatadilar. Bu operatsiyalarning va xizmatlarning barchasi bir vaqt va bir joyda paydo bo'lmaganligi sababli ham bank ishining "boshlang'ich" nuqtasini aniqlash aniq tadqiqotlar olib borishni va ular asosida ma'lum bir fikrlarni mujassamlashtirishni talab qiladi.

**Metodologiya va tahlil.** Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi va ularning rivojlanib borishi banklarning paydo bo'lishiga asos soladi. O'rta asrlarda banklar dastlab puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida qarz so'ragan subektlariga vaqtinchalik foydalanishga bergan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishga olib kelgan.

Banklar faoliyatining eng "qadimgi" operatsiyalari bo'lib, pullarni saqlab berish bo'yicha operatsiyalar hisoblanadi. Ma'lumki, eng qadimgi davlatlarda ham omonatlarni qabul qilish operatsiyalari mavjud bo'lgan. Ilk bor bunday ish bilan ma'lum obro'ga va ishonchga ega bo'lgan puldor shaxslar, Evropa mamlakatlarida cherkov muassasalari shug'ullanganlar. Masalan, mashhur grek ehromlari (masalan, Delfiya, Efes ehromlari) bir paytning o'zida o'ziga xos bank muassasalari bo'lib xizmat qilgan. Yillar o'tishi bilan o'sha qadimgi davrlardan boshlab, ayrim hollarda qo'yilgan pul yoki mulk bo'yicha foizlar ham hisoblangan. Banklarning kelib chiqishiga bag'ishlangan mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarning paydo bo'lishining asosiy yoki boshlang'ich zamini birinchidan, pul mablag'larini saqlab berish bo'lsa, ikkinchidan, pul mablag'larini almashtirib berishdan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Pul ayrboshlash bo'yicha ehtiyoj alohida paydo bo'lgan. Bunda Evropani yorqin misol qilib ko'rsatish mumkin. O'rta asrlarda tangalarning yagona tizimi mavjud bo'lmagan. Savdo turli mamlakatlar, shaharlar, hatto alohida shaxslarning tangalari orqali olib borilgan. Barcha tangalar turli vazn, shakl va nominalga ega edilar. Shuning uchun tangalar bilan shug'ullanuvchi va ayirboshlashni olib bora oladigan mutaxassislar o'z ayirboshlash stollari bilan qizg'in savdo ketayotgan joylarga joylashishgan. Shu bois, "bank" so'zi italyanча "banco"-ayirboshlovchining oldidagi stol degan ma'noni anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan. Bunga o'xshash operatsiyalar bundan ancha avvalgi davrlarda qadimgi Gretsiya, Rim, Sharqda amalga oshirilar edi.

Pulni saqlash va ayirboshlash bo'yicha operatsiyalar bilan shug'ullanuvchi shaxslar yig'ilgan boyliklar - pullar samarasiz, harakatsiz yotganini tushunishar va agar mavjud mablag'larning hech bo'lmaganda bir qismini bo'lsa ham vaqtinchalik foydalanishga berilsa, sezilarli foyda olish mumkinligini bilishar edi. SHunday qilib, garov asosida pullarni ma'lum muddatga qaytarish va foiz to'lash shartlari bilan berishayotgan ssuda (kredit) operatsiyalari paydo bo'lgan. Bunda garov sifati-da uylar, kemalar, qimmatbaho buyumlar, chorva mollari, qullar qabul qilingan.

Bir bank, aniqrog'i pulni saqlab beruvchi xizmatlaridan bir-biri bilan o'zaro hisob-kitoblar bilan bog'langan bir necha shaxslar foydalanish mumkin bo'lgani uchun, asta-sekin mijozlarga hisob-kitob xizmatini ko'rsatish operatsiyalariga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Dastavval ular quyidagicha amalga oshirilar edi. Har bir omonatchi pulni saqlab beruvchida uning ismi yozilgan jadval shaklidagi o'z hisob varaqasiga ega bo'lgan. Bu jadvalda pullarning harakati (kirim yoki chiqim) aks ettirilar edi. Butun operatsiyani pulni saqlab beruvchi-bankir omonatchining og'zaki yoki yozma buyrug'i bilan amalga oshirar edi. Bunda mos o'zgarishlar o'zaro hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi shaxslar jadvallariga kiritilar edi. Bu eng sodda xizmatlar naqd pulsiz hisob-kitoblarning dastlabki shakllarini tashkil qilgan.


Barcha yuqoridagi operatsiyalar dastlab alohida mavjud bo'lgan va keyinchalik ular biz bank deb nomlashga odatlangan bir xil tashkilotlar chegaralarida birlashganlar. G'arbiy Evropada oddiy ayirboshlash idoralaridan bank uylariga o'tish jarayoni XVI-XVII asrlarda ro'y

berdi.


Banklar barqaror va samarali faoliyat yuritmasa uning mijozlari o'z faoliyatini uzliksizligini ta'minlashning iloji bo'lmay qoladi. Mijozlar faoliyati ko'p jihatdan banklarning likvidiligi, to'lov qobiliyati va samarali faoliyat yuritishiga bog'liqdir. Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his etmoq, anglamoq zarur bo'ladi. Buning uchun esa eng avallo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, ushbu vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his etmoq lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun lozim bo'lgan mablag'lar va ularning manbalari, o'z mablag'lari hamda majburiyatlari tarkibi, ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari, ushbu mablag'larni samarali yo'naltirish, bankning likvidiligi, to'lov qobiliyatini ta'minlash asoslari kabilar chuqur o'rganilmog'i zarur. Bank faoliyati tahlilining asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- birinchidan, bank balansi ma'lumotlari;
- ikkinchidan, bank daromad va xarajatlari (moliyaviy natijalar) balansi;
- uchinchidan, bank buxgalteriyasi analitik va sintetik hisob raqamlari ma'lumotlari;

Bank faoliyati tahlilining turlari asosan belgilangan maqsad va vazifalarga bog'liqdir. Bundan tashqari, tahlil amalga oshirilayotgan zamon va makon, tahlil obyekti va subyektlari masalalari ham inobatga olinmog'i zarur, shundan kelib chiqib bank faoliyati tahlili quyidagi turlarga bolinadi:



1-chizma. Tahlil mazmuni bo'yicha tijorat banklari tahlil o'tkazish turlari.




2-chizma. Tahlil davri bo'yicha tijorat banklari tahlil o'tkazish turlari.

Bank faoliyati natijasida olinadigan sof foydaning miqdori oshishini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlarning ishonchini qozonish va bank aksionerlariga to'lanadigan dividendlar miqdorini oshirib borish uchun bank faoliyati domiy va uzluksiz ravishda tahlil qilib borilishi lozim. Har qanday iqtisodiy faoliyat yurutishdan ko'zlangan asosiy maqsad bu foyda olish hisoblanadi, shuningdek banklar faoliyat ko'rsatishidan ham asosiy ko'zlangan maqsad bu daromad olish ya'ni foyda olish hisoblanadi, banklarning daromadlari oshishi uchun ularning faoliyati samarali yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak uning uchun banklar quyidagilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Bank faoliyatini doimiy ravishda tahlil etib borish;
- Bank xodimlari malakasini oshirib borish;
- Bank va uning operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlarni elektron taqdim etish dasturlarini ishlab chiqish;
- Mijozlarga elektron xizmat ko'rsatish tartibini joriy etish
- Bank imiji (tashqi ko'rinishi) va dasturiy ta'minotini zamon talablariga mos ravishda yangilab borish;
- Bank binolarida bankning barcha operatsiyalari bo'yicha electron navbat olish tizimini joriy etish;

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Bank ishi rivojlanishini bankning alohida operatsiyalari miqyosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bank ishining tarixiy rivojlanishi quyidagicha borganini ko'rishimiz mumkin:



Mamlakatimizda bank-moliya tizimini shakllantirishda shu jumladan, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari, shuningdek, hukumat tomonidan mamlakat bank sektorini modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan bir qator oqilona qarorlar o'z taqbig'ini topmog'i lozim. Ana shundagina, banklar tijorat samaradorligini oshirish o'rta va

uzoq muddatli strategiyani shakllantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev „Pul va banklar“ /:Tashkent „Iqtisod-moliya“ 2018. 381-bet
2. Sh. Abdullayeva „ Bank ishi “ darslik /: Tashkent – 2003. 312-page.
3. O.Yu.Rashidov ,I.I.Alimov, R.R.Tojiyev „Pul, Kredit va Banklar“ darslik, „Cho‘lpon nomidagi nashriyot“ /: Tashkent – 2011. 323-bet.
4. <http://www.refportal.ru>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bank>

